



EKSPORT QILISH TIZIMI VA UNING ASOSIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI TAXLILI

XOLMURATOV BEKZOD DILSHOD O'G'LI

bekzodxolmuratov94@gmail.com

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tarmoqni barqaror rivojlantirish bo'yicha bir qator muhim sanalgan huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlar bosqichma – bosqich amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida ham agrar sohada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va diversifikatsiyalashni qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan¹.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “qishloq xo'jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalari ishlab chiqarish hajmini 1,5 barobarga oshirish, agrologistik markazlarni rivojlantirish, zamonaviy laboratoriyalar sonini ko'paytirish, urug'chilik va ko'chat yetishtirish bo'yicha milliy dasturni amalga oshirish, xalqaro qishloq xo'jaligi universitetini tashkil etish, sohada ilm-fan va amaliyot integratsiyasini chuqurlashtirish” kabi vazifalar belgilab berilgan².

Qishloq xo'jaligida o'rtacha yillik suv sarfi 45 696 mln. m³ yoki iqtisodiyot tarmoqlarida iste'mol qilingan suv resurslarining 90 foizini tashkil etib, yuqoriligicha qolmoqda. Jumladan, rivojlangan davlatlarda 1 m³ suv bilan 4–6

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5853-sonli Farmoni (<https://lex.uz/>).

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60 sonli Farmoni. (<https://lex.uz/>).



AQSH dollarilik mahsulot yetishtirilayotgan bo'lsa, respublikamizda bu ko'rsatkich 0,15 AQSH dollarini tashkil etmoqda.

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi 2023 yilda 426,3 trillion so'mni (36,3 milliard AQSH dollari), o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda o'sish sur'ati 4,1 foizni tashkil etdi. Yalpi ichki mahsulot tarkibida qo'shilgan qiymati 245,2 trillion so'mni (20,9 milliard AQSH dollari) yoki 24,3 foizli yuqori ulushini saqlab qoldi. Aholi jon boshiga 11,7 million so'mni tashkil etdi. Tarmoqning rivojlanishiga: qishloq xo'jaligi mahsulotlari 404,6 trillion so'm, ulushi 94,9 foiz, o'sish sur'ati 103,9 foiz; o'rmon xo'jaligi mahsulotlari 10,4 trillion so'm, ulushi 2,4 foiz, o'sish sur'ati 102,7 foiz; qishloq xo'jaligida ko'rsatilgan xizmatlar va ovchilik 6,9 trillion so'm, ulushi 1,6 foiz, o'sish sur'ati 104,1 foiz; - baliqchilik xo'jaligi mahsulotlari 4,3 trillion so'm, ulushi 1 foiz, o'sish sur'ati 107,4 foiz darajasida o'sishi asosiy omil bo'ldi.

1.jadval

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligining rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari³

№	Kўrsatkichlar	2015	2017	2019	2021	2022	2023
1.	Қишлоқ хўжалиги экинлари экин майдони, минг гектар	3694,2	3474,5	3309,4	3340,6	3353,3	3352,2
2.	Қишлоқ хўжалиги маҳсулоти, млрд. сўм	99604,6	148199,3	216283,1	303415,5	345191,7	404648,6
3.	Қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқаришнинг ўсиш суръати, ўтган йилга нисбатан фоизда	106,1	101,0	103,3	103,9	103,6	103,9

Umumiy qishloq xo'jaligi mahsulotlarining joriy davrda 63,1 foizini dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 29,8 foizi fermer xo'jaliklariga va 7,1 foizi

³ O'zbekiston davlat statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelgan. Dehqon va tomorqa xo'jaliklarining yuqori ulushi chorva mollarining asosiy qismi aholi xonadonlarida boqilayotganligi va shu bilan birgalikda chorvachilik mahsulotlarining ham asosiy qismi ishlab chiqarilganligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, dehqonchilik mahsulotlarida ulushi yuqori bo'lgan sabzavot va mevalarni mamlakatimizda qishloq joylarda istiqomat qiluvchi 49 foiz aholining o'zini ushbu mahsulotlar bilan ta'minlashi, ishlab chiqarishning katta qismini tashkil etishi sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Bundan tashqari, klasterlar faoliyatini yo'lga qo'yilishi, ularga ekin maydonlarining birlashtirilishi qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar toifasining ulushini yildan-yilga ortib borishiga omil bo'lmoqda.

2.jadval

Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining hajmi⁴

	ХУДУДЛАР	2015	2017	2019	2021	2022	2023
1	Ўзбекистон Республикаси	103 302,0	154 369,4	224 265,9	317 027,6	362 898,0	426 264,0
2	Қорақалпоғистон Республикаси	3 452,1	4 977,3	8 769,3	12 340,9	14 374,0	16 548,3
3	Андижон	10 164,4	15 950,0	24 314,9	31 582,5	37 246,9	43 276,3
4	Бухоро	8 441,7	13 178,6	19 436,2	29 170,4	33 653,0	38 398,6
5	Жиззах	5 901,4	9 194,9	14 105,9	21 202,8	24 203,6	27 577,1
6	Қашқадарё	9 320,1	14 761,6	20 415,1	29 232,8	33 549,2	40 167,9
7	Навоий	4 420,6	6 850,7	9 934,2	15 224,9	16 442,0	19 693,7
8	Наманган	7 610,9	11 398,3	16 832,2	23 654,5	27 640,8	32 824,7
9	Самарқанд	14 766,6	22 308,7	29 294,7	40 329,6	42 088,9	51 216,4
10	Сурхондарё	8 354,3	11 837,2	18 152,0	23 881,8	27 427,5	33 655,0
11	Сирдарё	3 850,6	5 490,0	7 984,8	10 485,2	12 606,9	14 675,1
12	Тошкент	11 263,2	16 378,5	21 632,7	31 371,1	35 354,9	41 001,6
13	Фарғона	9 382,8	12 692,3	18 946,3	28 223,2	33 723,6	39 421,6
14	Хоразм	6 373,3	9 351,3	14 447,6	20 327,9	24 586,7	27 807,7

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda dehqonchilik mahsulotlari ulushi 50,1 foizni va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning


⁴ O'zbekiston davlat statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



ulushi 49,9 foizni tashkil qilgan. Dehqonchilik mahsulotlari ulushining ortib borishi, intensiv ishlab chiqarish, yerlarni foydalanishga kiritish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilinishi hamda o'simliklarning hosildorligi yuqori navlari o'zlashtirilishi hisobiga mahsulot hajmining ortishi bilan bog'liq. Hududlar bo'yicha eng yuqori o'sish ko'rsatkichlari Sirdaryoda – 106,4 foiz, Namanganda – 104,5 foiz, Samarqandda 104,4 foiz, Qashqadaryoda – 104,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, Navoiyda 101,9 foiz, Surxondaryoda – 103,7 foiz va Farg'onada 103,9 foiz darajada bo'lib, yuqori o'sish sur'atlari ta'minlanmagan.

2023 yilda xududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori xajmi Samarqand (51 216,4 mlrd. so'm), Andijon (43 276,3 mlrd. so'm), Toshkent (41 001,6 mlrd. so'm), Qashqadaryo (40 167,9 mlrd. so'm), Farg'ona (39 421,6 mlrd. so'm) va Buxoro (38 398,6 mlrd. sum) viloyatlarida qayd etildi. Aksincha kam xajmga ega xududlarga Sirdaryo viloyati (14 675,1 mlrd. so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasi (16 548,3 mlrd. so'm) va Navoiy viloyatini (19 693,7 mlrd. so'm) keltirib o'tish mumkin. Iqlim o'zgarishi, global isish oqibatida mamlakatimizda suv tanqisligini oldini olish uchun 500 ming gektarda suv tejovchi texnologiyalar joriy qilinib, 3 mlrd kub metr suv iqtisod qilindi va qariyb 1 mln gektardan yerlarning suv ta'minoti yaxshilandi.

Takroriy ekinlar maydoni ulushi





1.rasm. Takroriy ekinlar maydoni ulushi⁵

Jami foydalanilgan yer maydonlarining 2553 ming gektari fermer xo‘jaliklariga, 640,9 ming gektari dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga, 622,9 ming gektari qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga birlashtirilgan. Ularning dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi mos ravishda fermer xo‘jaliklarida 53,2 foizni, dehqon va tomorqa xo‘jaliklarida 37,9 foizni va qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda 8,9 foizni tashkil etgan.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirish, uning tarkibida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlar ulushini va mahsulotlarning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish hozirgi bosqichda O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Davlat tomonidan kuchli raqobat hamda iqlim o‘zgarishlari sharoitida qishloq xo‘jaligiga innovatsiya va ilg‘or ishlanmalarni, intensiv va resurs tejovchi texnologiyalarni, eng asosiysi ilm izchil tatbiq etilishi natijasida qishloq xo‘jalik mahsulotlarining yalpi hosildorligi yildan-yilga o‘sib bormoqda.

3.jadval

Barcha toifadagi xo‘jaliklarda yetishtirilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari xajmi (ming t.)⁶

	Maxsulotlar	2017y.	2019y.	2021y.	2023y.	2023 /2017 nisbatan. O‘sinh(%da)
1.	O‘rik	532,6	535,7	424,7	555,2	104,2
2.	Shaftoli	193,3	188,2	193,3	213,4	110,3

⁵ O'zbekiston davlat statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

⁶ O'zbekiston davlat statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



3.	Uzum	1625,5	1603, 3	1695,3	1 737,6	106,8
4.	Piyoz	995,1	1233, 0	1200,0	1414,3	142,2
5.	Olcha	57,1	64,7	73,3	82,8	145,0
6.	Pamidor	2455,1	2145, 1	2206,6	2691,1	109,6
7.	Olma	1028,8	1132, 6	1238,1	1613,2	156,9
8.	Karam	904,5	703,4	680,6	1047,7	115,8
9.	No‘xat		34,2	34,3	46,4	135,2
10 .	Gilos	136,6	175,4	213,6	218,9	160,2
11 .	Bodom	4,3	21,2	27,9	31,4	720,9
12 .	Loviya		72,2	73,7	82,6	114,4

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki tadqiq etilayotgan davrda Respublikamizda gilos yetishtirish 160,2%ga, olma 56,9 %ga, olcha 145%ga, no'xat 135,2%ga o'sdi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida "Bir kontur bir mahsulot" tamoyili asosida asosiy maydonlarga jami 349 ming gektar shundan 155,7 ming gektar sabzavot, 73,3 ming gektar poliz, 120 ming gektar kartoshka ekinlari ekildi. Natijada kartoshka mahsuloti o'tgan yilga nisbatan 27 ming gektar ko'proq (o'tgan yilga nisbatan 104 %) ekildi. 2023-yilda 28,2 ming gektar yer maydoniga (7,4 ming gektar tomchilatib, 0,3 ming gektar yomg'irlatib sug'orish, 1,7 ming pikirovka, 0,6 ming "NetHouse", 2 ming gektar temos, 0,3 ming gektar pulsar, 16,2 ming ko'chat usulda,) intensiv usulda sabzavot yetishtirish joriy etildi. Natijada o'tgan yilga nisbatan 5 ming



gektardan ortiq intensiv sabzavotchilik yo'lga qo'yilib (o'sish 121 %), hosildorlik 126 foizni tashkil etdi.

Ushbu ekin ekilayotgan maydonlarda fermer va dehqon xo'jaliklariga ko'maklashish maqsadida respublika bo'yicha 17 ta ko'chatxonalarda 154 mln. dona sabzavot-poliz ko'chatlari yetishtirilib, fermer va qishloq xo'jaligi korxonalariga yetkazib berildi. Buning natijasida ko'chat yetishtirish o'tgan yilga nisbatan 10 barobarga oshishiga erishildi. Shu bilan birgalikda, respublikada 2023 hosili uchun jami 905,7 ming gektar (100 %) maydonda takroriy ekinlar ekildi.

2023-yilda oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni yanada ko'paytirish, qayta ishlash hajmlarini oshirish, bozorda narxlar barqarorligini ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilandi. Amalga oshirilgan tizimli ishlar natijasida, 2023-yilda 8,4 million tonna don ekinlari, 11,6 million tonna sabzavot, 3,6 million tonna kartoshka, 2,6 million tonna poliz, 3,1 million tonna meva, 1,7 million tonna uzum yetishtirildi. Aholini asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xususan, go'sht, sut, tuxum, baliq va asal mahsulotlari bilan ta'minlashni ko'paytirish maqsadida 2,8 million tonna go'sht (tirik vaznda), 12 million tonna sut, 0,2 million tonna baliq, 8,5 milliard dona tuxum yetishtirildi. Meva-sabzavotni qayta ishlash quvvatlari 3 065 ming tn dan 3 250 ming tn (+185 ming tn), go'shtni qayta ishlash quvvatlari 427 ming tn dan 458 ming tn (+31 ming tn), sutni qayta ishlash quvvatlari 2 760 ming tn dan 3 100 ming tn (+340 ming tn) yetkazildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vahobov A. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lishi: oziq-ovqat sanoati hamda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sohasida to'sqinliklar va imkoniyatlar. // O'zbekiston iqtisodiyoti. – 2016. -№1. 104–116;

2. Abaturov V. Prodovolstvennaya opasnost. //Ekonomicheskoye obozreniye. Tashkent, 8№ .2017. s.50–54.



3. Muhitdinova U.S. Metodologiya i metodika osenki effektivnosti funkcionirovaniya rynka plodoovocnoy i vinogradnoy produkcii. // Ekonomika i finansy. Moskva. 2018 – №11 (150) noyabr. s. 68-69. 3.

4. Sh. Mirziyoyev. “Tanqidiy tahlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik xar bir rahbar faoliyatini kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” T.: O‘zbekiston, 2017.

5. Eksport faoliyati bo‘yicha qo‘llanma. Ekonomicheskoye obozreniye. Toshkent 2014. 5. Nazarova G.G., Xaydarov N.X. Xalkaro iqtisodiy munosabatlar. – T.: TDIU, 2005. – 273 b.